

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYAVIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Abidova Kamola Nigmatulla qizi, Eshmurodova Baxtigul Saidmurodovna

Toshkent viloyati pedagogik mahorat  
markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va  
maxsus ta'lim metodikasi" kafedrası  
o'qituvchilari

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Milliy qadriyatlarning mazmuni, ularning bola shaxsining shakllanishidagi roli hamda tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali ta'lim-tarbiya metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, pedagogik tajribalar, kuzatuv va suhbat metodlari asosida olingan natijalar muhokama qilinadi. Maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** *Milliy qadriyatlar, tarbiyaviy kompetensiya, maktabgacha yosh, ma'naviy tarbiya, oila, xalq og'zaki ijodi, pedagogik jarayon, madaniy meros, milliy o'yinlar, ta'lim-tarbiya.*

### Аннотация:

В статье рассматриваются педагогические основы формирования образовательных компетенций у детей дошкольного возраста на основе национальных ценностей. Анализируются содержание национальных ценностей, их роль в формировании личности ребёнка, а также эффективные педагогические методы развития образовательных компетенций. В процессе исследования обсуждаются полученные на основе научной литературы результаты, педагогического эксперимента, методов наблюдения и интервьюирования. Статья имеет практическое значение для педагогов дошкольных образовательных организаций.

**Ключевые слова:** национальные ценности, образовательные компетенции, дошкольный возраст, духовное воспитание, семья, народное устное творчество, педагогический процесс, культурное наследие, национальные игры, воспитание.

### Abstract:

This article discusses the pedagogical foundations of the formation of educational competencies in preschool children based on national values. The content of national values, their role in the formation of the child's personality, and effective educational methods for the development of educational competencies are analyzed. In the process of research, the results obtained based on scientific literature, pedagogical experiments, observation and interview methods are discussed. The article is of practical importance for teachers of preschool educational organizations.

**Keywords:** National values, educational competencies, preschool age, spiritual education, family, folk oral art, pedagogical process, cultural heritage, national games, education.

### Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim davri bolaning shaxs sifatida shakllanishi uchun

eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois, milliy an'analar asosida tarbiya berish ularning milliy g'ururi, qadriyatlarimizga hurmati va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy an'analar – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi tushuncha. Milliy an'analar umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishidir. Ular orqali har bir millatning muayyan davrdagi o'ziga xos xususiyat, hayot tarzi, madaniyati, fani, adabiyoti va boshqa sohalaridagi erishilgan natijalar va yutuqlari boshqa davrda yashayotgan avlodlarga yetkaziladi. Milliy an'analar rang-barangdir. Ularda har bir millatga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Masalan, butun dunyo xalqlariga xos mehmondo'stlik an'anasi o'zbeklarda boshqa xalqlardan farq qiladi. Milliy an'analar millatni birlashtirish avlodlararo vorislikni ta'minlash vositasidir. Muayyan milliy an'analarni bajarishda kishilar ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, bir xilda harakat qiladi. Milliy an'analarda millatning betakrorligi, millat hayotining o'ziga xosligi, vorislikning muhim milliy jihatlari namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularning dunyoqarashi va tarbiyaviy kompetensiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaviy kompetensiya — bu bolaning o'zini tutish madaniyati, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me'yorlarga amal qilish va milliy qadriyatlarga asoslangan xulq-atvorni namoyon etish qobiliyatidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyaviy kompetensiyalar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Axloqiy kompetensiya – hurmat, poklik, mehribonlik, adolatga rioya qilish.
  2. Madaniy kompetensiya – milliy bayramlar, an'analar, milliy kiyim va o'yinlar haqida tushunchaga ega bo'lish.
  3. Ijtimoiy kompetensiya – jamoada ishlash, hamkorlik, do'stlarga mehrlilik bo'lish.
  4. Kommunikativ kompetensiya – odobli gaplashish, salomlashish, minnatdorchilik bildirish.
- Bu kompetensiyalar bolaning jamiyatga moslashuvida muhim rol o'ynaydi.

### **Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi**

Milliy qadriyatlar masalasi ko'plab ilmiy-pedagogik manbalarda yoritilgan. Sharq mutafakkirlari — Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Donish — bolani ma'naviy tozalikka, halollik, mehr-oqibat va tarbiyaga asoslangan shaxs sifatida kamol toptirishni eng muhim vazifa deb bilgan. Zamonaviy olimlar (O. Hasanboeva, N. Raxmonov, S. Nishonova va boshqalar) milliy qadriyatlarni maktabgacha ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali bolalarda ijtimoiy moslashuv, madaniy identifikatsiya va ma'naviy kompetensiyalar rivojlanishini ta'kidlaydilar.

O'tgan yillardagi ilmiy izlanishlarda xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va an'anaviy marosimlar bolalarning ruhiy-emotsional rivojlanishida ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Shuningdek, UNESCOning 2019-yilgi tavsiyalarida ham madaniy meros va milliy qadriyatlarni bolalikdan o'rgatish insoniyatning umumiy ma'naviy barqarorligiga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

**1. Kuzatuv** – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning xulq-atvori, muloqoti, o'zaro munosabati va o'yin jarayonlaridagi faolligi kuzatildi.

**2. Suhbat** – tarbiyachilar, ota-onalar va bolalar bilan qisqa suhbatlar o'tkazilib, milliy qadriyatlar bilan bog'liq tarbiyaviy faoliyatning holati o'rganildi.

**3. Pedagogik tajriba** – tajriba-sinov mashg'ulotlari orqali milliy o'yinlar, ertaklar, xalq qo'shiqlari va an'anaviy bayramlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish amaliyoti sinovdan o'tkazildi.

**4. Adabiyotlarni o'rganish** – mavzuga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, davlat dasturlari va metodik qo'llanmalar tahlil qilindi.

**5. Tahlil va umumlashtirish** – olingan ma'lumotlar solishtirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar vositasida tarbiyaviy kompetensiyani shakllantirish maktabgacha ta'lim tizimida asosiy pedagogik muammolardan biri bo'lib, uni ilmiy asosda o'rganish muhimdir.

#### **Muhokama va natijalar**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun milliy qadriyatlar nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy-psixologik rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. **Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ldi:**

**Axloqiy kompetensiyaning rivojlanishi** – bolalarda halollik, hurmat, poklik, mehribonlik kabi sifatlar barqarorlashdi.

**Madaniy identifikatsiya mustahkamlandi** – bolalar milliy kiyimlar, milliy taomlar, an'analar, bayramlar va urf-odatlar haqida boshlang'ich tasavvurlarga ega bo'ldilar.

**Ijtimoiy kompetensiyalar shakllandi** – milliy o'yinlar jamoada ishlash, navbat kutish, hamkorlik qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirdi.

**Nutq va muloqot madaniyati yaxshilandi** – xalq ertaklari, hikoyalar va maqollar bolalarda to'g'ri gapirish, odobli muloqot qilishni rivojlantirdi.

**Emotsional-intellektual rivojlanish faollashdi** – xalq ijodi va san'ati bolaning tasavvurini, his-tuyg'ularini va estetik didini kuchaytirdi.

#### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish — ularning shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi omillardandir. Xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar, an'analar, marosimlar, milliy san'at unsurlarini mashg'ulotlarga integratsiya qilish bolalarda axloqiy, ijtimoiy, madaniy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi. Milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar oddiy darslarga nisbatan bolalarda ko'proq qiziqish uyg'otadi. Ota-onalar bilan hamkorlik kuchaysa, tarbiyaviy natijalar yanada barqaror bo'ladi. Milliy qadriyatlarni o'rgatish jarayonida ko'rgazmalilik, o'yin texnologiyalari va amaliy faoliyat yuqori samara beradi. Bu esa, bolaning ma'naviy barqarorligi, milliy o'zligini anglash, jamiyatda munosib o'rin egallash, keng dunyoqarashga ega bo'lish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim amaliy ahamiyatga ega.